

KUTUBXONA SOHASIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR

Aliyeva Oltinoy Maxamatovna

Andijon veterinariya meditsinasi texnikumi

Pedagogika va iqtisod kafedrası

Kutubxonashunoslik va bibliografiya yo‘nalishi

O‘qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy kutubxona sohasi oldida turgan asosiy muammolar, ularning yuzaga kelish sabablari va yechim yo‘llari tahlil qilinadi. Raqamlashtirish jarayonining sustligi, kadrlar malakasining yetarli emasligi, kitob fondlarining eskirishi, axborot texnologiyalarining joriy etilishidagi kamchiliklar hamda o‘quvchilarning kitobxonlik madaniyatidagi pasayish kabi masalalar yoritilgan. Shuningdek, kutubxonalar faoliyatini modernizatsiya qilish va innovatsion xizmatlar joriy etishning amaliy ahamiyati ilmiy nuqtai nazardan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Kutubxona ishi, raqamlashtirish, kitob fondi, axborot texnologiyalari, malaka oshirish, kutubxonachi, innovatsion xizmatlar, kitobxonlik madaniyati, axborot resurs markazi.

Kutubxonalar jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirish, ma’naviy-ma’rifiy rivojlanishni ta’minlash hamda yosh avlodni ilm-fan yutuqlaridan xabardor qilishda muhim ijtimoiy institutlardan biridir. XXI asrda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, raqamli transformatsiya jarayonlarining kuchayishi kutubxonalarning yangi funksiyalarni bajarishini taqozo qilmoqda. Biroq bu jarayon davomida kutubxona sohasi qator muammolar bilan ham to‘qnash kelmoqda. Ushbu muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va samarali yechim takliflarini ishlab chiqish kutubxonachilik faoliyatining sifatini oshirishda muhim o‘rin tutadi.

Kitob — inson tafakkurini boyitadigan, ma’naviy olamini yuksaltiradigan, uni komillikka yetaklaydigan eng muhim manbalardan biridir. Kitob orqali inson o‘z dunyoqarashini kengaytiradi, hayotga teranroq nigoh bilan qarashni o‘rganadi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishga intiladi. So‘zning kuchi va kitobning jozibasi qadimdan

insoniyatni to'g'ri yo'lga boshlashda, uni ezgulikka da'vat etishda beqiyos vosita bo'lib kelgan. Asrlar davomida kitob insoniyatga nur sohib, uni ma'rifat sari yetaklagan, jamiyat taraqqiyotining intellektual asosini mustahkamlab kelgan.

Zamon o'tishi bilan kitob va kutubxona sohasi ham taraqqiy etib, yangicha mazmun kasb etdi. Axborot oqimining keskin ortishi, raqamli texnologiyalarning rivoji, bilimlarning yangilanish tezligi kutubxonachilik sohasining oldiga yangi vazifalar qo'ymoqda. Kutubxonashunoslik davlat taraqqiyoti va jamiyatning intellektual rivojlanishida muhim o'rin tutuvchi ilmiy yo'nalish sifatida shakllanib, bugungi kunda yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [1].

Hozirgi zamon kutubxonashunosligi faqat kitoblarni yig'ish va saqlash bilangina cheklanib qolmay, balki jamiyatning har tomonlama axborotga bo'lgan ehtiyojini qondiruvchi zamonaviy tizim sifatida qaralmoqda. Ushbu yo'nalish milliy axborot makonini yaratish, axborot infratuzilmalarini takomillashtirish, yangi avlod axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish kabi jarayonlarning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqadi.

Shuni ham aytish joizki, kutubxonashunoslikning asosiy vazifasi — axborot resurslarini samarali boshqarish, foydalanuvchilarga tezkor, aniq va ishonchli axborot yetkazish, raqamli kutubxonalar tizimini rivojlantirish, innovatsion xizmatlarni kengaytirish hamda jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy rivojiga xizmat qilishdan iborat. Shu ma'noda, kutubxonalar nafaqat kitob saqlanadigan joy, balki ma'rifat tarqatiladigan, ilm o'rganiladigan, zamonaviy fikrlar tug'iladigan intellektual markaz sifatida shakllanmoqda.

Ko'plab kutubxonalarda mavjud adabiyotlar fondi yillar davomida yangilanmagani sababli kitoblarning mazmuni zamon talablari bilan mos kelmay qolmoqda. Ahamiyatli ilmiy nashrlar, yangi o'quv qo'llanmalar, zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minot yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Ayrim hollarda esa mavjud mablag'lar ham fondni keng ko'lamda yangilashga yetarli emas.

Zamonaviy kutubxona raqamli kutubxona tizmisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ammo ko'plab hududlarda kutubxonalarni raqamlashtirish ishlari sekin olib borilmoqda. Raqamli kataloglar to'liq shakllanmagan, elektron adabiyotlar bazasi cheklangan, foydalanuvchilar

uchun masofaviy xizmatlar to'liq yo'lga qo'yilmagan. Bu esa foydalanish samaradorligini kamaytiradi.

Rivojlangan mamlakatlarda kutubxonalar turli onlayn xizmatlar: elektron o'qish zallari, masofaviy buyurtma, interaktiv platformalar orqali kitobxonlarga qulaylik yaratadi. Ammo mavjud kutubxona tizimlarida bunday innovatsion xizmatlar yetarli emas. Natijada kitobxonlarning zamonaviy axborotga bo'lgan talabini qondirish qiyinlashadi.

Kutubxonachilar zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini mukammal bilishi zarur. Ammo amaliyotda ko'plab xodimlar eski uslubda ishlashga odatlangan. Malaka oshirish kurslarining yetishmasligi, zamonaviy metodik qo'llanmalar bilan ishlash tajribasining pastligi kutubxonalar rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Axborotning ko'payishi, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi yoshlarning kitobga bo'lgan qiziqishini ma'lum darajada kamaytirmoqda. Kutubxonalar o'quvchilarni jalb qilishda, kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda yetarli targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilmayapti.

Yurtimizda axborot-kutubxona tizimini yanada rivojlantirish va samaradorligini oshirish uchun bir qator ustuvor yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish zarur. Avvalo, barcha turdagi kutubxonalar uchun yagona, puxta ishlab chiqilgan, zamonaviy talablar asosidagi dasturiy ta'minotni joriy etish lozim. Bu tizim kutubxonalarning boshqaruv jarayonlarini, fondlar hisobini, elektron kataloglarni va foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatishni bir markazdan muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Shuningdek, kutubxona fondlarini shakllantirish jarayoni kitobxonlarning real ehtiyojlari, o'quv-uslubiy talablar va jamiyatning intellektual rivojiga mos holda maqsadli yondashuv asosida olib borilishi muhimdir. Kirill va lotin alifbosidagi ilmiy, o'quv hamda badiiy adabiyotlar bilan ta'minot yetarli bo'lishi uchun respublika byudjetidan ajratiladigan mablag'larni oshirish ham dolzarb masalalardan biridir.

Bugungi kunda kitobxonlar nafaqat kitob olishni, balki bir qator qo'shimcha xizmatlarni ham kutadi: elektron kutubxona platformalari; bibliografik maslahatlarning onlayn shakli; multimedia xonalari; ilmiy ma'lumotlar bazasiga ulanish va audio va video resurslar bilan ishlash imkoniyati. Ko'plab kutubxonalarda bu xizmatlar hali to'liq shakllanmagan [4].

Xulosa qilib aytganda, kutubxona sohasi jamiyat taraqqiyotining muhim bo'g'ini bo'lib, uning barqaror faoliyat yuritishi uchun zamonaviy yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va malakali kadrlar zarur. Mavjud muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi yo'nalishlarda tizimli choralar ko'rish maqsadga muvofiq:

- kutubxona fondlarini muntazam yangilash;
- raqamli kutubxonalar va elektron xizmatlarni rivojlantirish;
- kutubxonachilarni malaka oshirish kurslariga jalb etish;
- kitobxonlik madaniyatini oshirish bo'yicha targ'ibot ishlarini kuchaytirish;
- zamonaviy texnik jihozlar bilan ta'minlash;
- aholining barcha qatlamlari uchun qulay, interaktiv, innovatsion kutubxona maydonlarini yaratish.

Bu chora-tadbirlar amalga oshirilishi kutubxonalarni jamiyatning muhim ma'rifiy markaziga aylantiradi va ularning raqobatbardoshligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov M. Kutubxonachilik asoslari. – Toshkent: Fan, 2021.
2. Rasulov Sh. Axborot resurs markazlari faoliyati va rivojlanish istiqbollari. – Toshkent, 2020.
3. Xalilova N. Raqamli kutubxona texnologiyalari. – Samarqand, 2022.
4. Islomova G. Kutubxona menejmenti va innovatsion xizmatlar. – Buxoro, 2019.